

TALABALAR O‘RTASIDA NOTIQLIK SAN’ATINI RIVOJLANTIRISH**Safarova Hayitgul Turg‘un qizi***Sharof Rashidov nomidagi**Samarqand davlat universiteti**Filologiya fakulteti, 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalar orasida notiqlik san’atini shakllantirish va rivojlantirish masalalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Notiqlik – nafaqat so‘zlashuv malakasi, balki mantiqiy fikrlash, nutqni to‘g‘ri tuzish va ta’sirchan ifoda etish san’ati sifatida qaraladi. Maqolada aynan talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik vositalar, kommunikativ texnologiyalar va interaktiv mashg‘ulotlarning o‘rni tahlil etiladi. Shuningdek, notiqlik kompetensiyasining shakllanishi, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari asosida ta’lim jarayoniga integratsiyalash mumkin bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *notiqlik san’ati, nutq faoliyati, pedagogik metodika, kommunikativ yondashuv, kasbiy rivojlanish.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lishning muhim omillaridan biri – bu samarali muloqotga kirisha olish, ya’ni notiqlik san’atiga ega bo‘lishdir. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun notiqlik – nafaqat ijtimoiy faoliyat, balki kasbiy jihatdan ham muhim kompetensiyadir. Notiqlik san’ati o‘z fikrini lo‘nda, ravon va mantiqiy bayon etish, auditoriyani ishontira olish, bahs va munozaralarda faol ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarni faollikka, mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarini asoslab berishga o‘rgatish va rivojlantirishni ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilishni talab etadi.

Mazkur maqolada talabalar o‘rtasida notiqlik san’atini rivojlantirishning uslublari, bu boradagi samarali tajribalar hamda zamonaviy ta’lim vositalari orqali ularni qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Notiqlik san’ati inson tafakkuri, nutq madaniyati, til madaniyati va muloqot uslubi kabi filologik tushunchalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy faolligi,

madaniy saviyasi va fikrlash darajasini belgilab beruvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Notqlik – bu faqatgina so'zlashuv malakasi emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik, lingvistik va uslubiy ko'nikmalarni mujassamlashtirgan til hodisasidir. Ayniqsa, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun notqlik san'ati – o'rgangan nazariy bilimlarni amaliy-nutqiy faoliyatda qo'llay olish, adabiy til me'yorlariga tayanib, stilistik sezgirlikni namoyon eta olish, badiiy vositalardan foydalanib, ta'sirchan nutq qurish qobiliyatidir. Tilshunos olimlar notqlikni kommunikativ kompetensiyaning yuksak shakli deb baholaydilar. Chunki u nafaqat til birliklarini bilishni, balki ularni maqsadga muvofiq, auditoriyaga mos va mantiqiy asoslangan tarzda ishlata olishni ham talab qiladi [1,28-33].

Shu bois, filologiya fanlari doirasida notqlik masalasi stilistika, pragmalingvistika, matnshunoslik, psixolingvistika va hatto muloqot nazariyasi bilan bevosita integratsiyalashgan. Filologiya – til va adabiyot uyg'unligi orqali tafakkurni tarbiyalaydigan fan. Notqlik san'atining asosi esa o'z navbatida milliy badiiy-estetik tafakkurga tayanadi. Shunday ekan, badiiy adabiyot namunalari, ayniqsa, ulug' mutafakkirlarning asarlari notqlik ko'nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Masalan, Alisher Navoiy asarlaridagi nutqiy soddalik va badiiylik uyg'unligi, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom kabi adiblarning ijtimoiy-ma'rifiy chiqishlari, hozirgi zamon publitsistikasi va ma'naviy targ'ibot nutqlari orqali talabalar muloqot madaniyati va obrazli ifoda vositalarini o'rganadilar. Notqlik san'ati badiiy obraz bilan ifodalanganida yanada ta'sirli bo'ladi. Bunda metafora, tashbeh, ritorik so'roq, inversiya, parallelizm kabi stilistik vositalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu vositalarni o'rgatish va amaliyotda qo'llash filologik ta'limning eng asosiy vazifalaridan biri sanaladi [2,91-92].

Shuningdek, nutqiy tahlil qilish, matnlar ustida ishlash, dialog, monolog va polilog shakllarini o'rgatish – notqlik asoslarini shakllantiradi. Talabalar nutqni yaratishda nafaqat mazmun, balki shakl, ohang, uslub, psixologik ta'sir, muloqot konteksti, til vositalarining emotsional xarakteri kabi jihatlariga ham e'tibor qaratishni o'rganadilar.

Oliy ta'lim muassasalarida filologiya yo'nalishidagi talabalarning notqlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim. An'anaviy o'qitishdan farqli ravishda zamonaviy interaktiv metodlar – bahs-munozaralar, improvizatsion chiqishlar, ilmiy-amaliy konferensiyalarga tayyorlov, jamoaviy nutqiy loyiha ishlari, matn asosida chiqishlar tayyorlash kabi faoliyatlar talabalarni erkin fikrlashga, fikrni lo'nda va ta'sirchan bayon qilishga o'rgatadi. O'quv mashg'ulotlarida quyidagi metodik yondashuvlar samarador hisoblanadi:

- “Analiz va ifoda” mashqlari — matnni tahlil qilish va shu asosida chiqish tayyorlash;
- “Adib rovida” usuli – mashhur adabiy qahramon yoki notiq sifatida chiqish qilish;
- “Bahsli fikr” mashqlari – bir fikr asosida “ha” va “yo‘q” nuqtayi nazarini nutqiy asoslash;
- Stilistik tahlil asosida nutq yaratish – matndagi uslubiy vositalardan foydalanib og‘zaki nutq qurish [3].

Filologik tafakkur — bu til va adabiyotni zamonaviy ijtimoiy-madaniy kontekstda anglay olish qobiliyatidir. Notqlik esa ana shu anglashni ommaga, auditoriyaga, tinglovchiga yetkazish vositasidir. Shunday ekan, notqlik san’ati – bu filologik tafakkurning tashqi ifoda shakli. Talabalarning filologik tafakkurini rivojlantirish orqali ular nutqni o‘rganmaydi, balki uni yaratishga o‘rganadi. Bu esa ularni nafaqat ta’lim jarayonida, balki kasbiy faoliyatda ham faol, tashabbuskor va ishonchli mutaxassis bo‘lishlariga xizmat qiladi.

XULOSA

Bugungi globallashuv va axborot asrida talabalar uchun notqlik san’atini egallash nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyatda ham muhim omilga aylanmoqda. O‘tkazilgan tahlillar va ilmiy-nazariy manbalar asosida aniqlanishicha, notqlik san’ati – bu oddiy so‘zlashuv emas, balki fikrni aniq, ravon va mantiqan bayon qilish, tinglovchini ishontirish, ruhlantirish va ta’sirlantirish san’atidir. Filologiya fanining asosiy tarkibiy qismi sifatida nutq madaniyati va notqlik mahorati talabalar tafakkurini rivojlantirish, adabiy til normalarini egallash, erkin fikrlash va ishonchli chiqish qilish salohiyatini oshiradi. Tajribaviy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarida notqlik bo‘yicha maxsus kurslar, debat to‘garaklari, ilmiy nutq seminarlarini yo‘lga qo‘yish orqali talabalar orasida so‘z madaniyati yuksalmoqda. Bu esa, ularning nafaqat o‘quv jarayonida, balki jamiyatda faol, ongli va mulohazali fuqaro bo‘lib shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, notqlik san’atini o‘rgatish va rivojlantirish – bu faqat til o‘rganish emas, balki tafakkur, axloq, madaniyat va yetuk shaxs sifatida kamol topish yo‘lida muhim pedagogik vositadir. Bu esa filologiya fanining dolzarb va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biri sifatida doimiy ravishda rivojlantirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Hamidova. Notiqlik san'ati. O'zkitobsavdo: – Toshkent, 2023, 256 bet.
2. D.Qo'chqorova. Nutq madaniyati asoslari. Tafakkur: – Toshkent, 116 bet.
3. Manba: <https://lib.cspu.uz>